

**ALISHER NAVOIY RUBOIYLARIDA SO‘Z SEHRI VA BADIY
SAN’ATLAR XILMA-XILLIGI**

Musurmanova Jasmina Xolmurod qizi

TDSHU, Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti,

1-kurs koreys-ingliz 2-guruh talabasi

[Tel: +998919626106](#)

e-mail: musurmonovamahliyo622@gmail.com

Annotatsiya: So‘z mulkining sultoni, turkiy she’riyat dahosi Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning ruboilyari o‘zining chuqur ma’nosи, estetik go‘zalligi va badiiy san’atlarning xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Mazkur maqolada Navoiyning ayrim ruboilyari tahlili va so‘z san’atining qanday ifodalanishi, uning lirizmi va tasviriyligi tahlil etiladi. Ruboilarida muallif hayot, muhabbat, tabiat va insonning ichki dunyosiga oid fikrlarni o‘ziga xos uslubda bayon etadi. Shuningdek, maqolada Navoiyning she’riyatidagi metaforalar, simvollar va ritmlarning ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Alisher Navoiyning ijodi orqali o‘quvchilarga so‘zning kuchi va uning inson ruhiyatiga ta’siri haqida chuqurroq tushuncha berish maqsad qilingan. Maqola badiiy tafakkur va ijodkorlikni rivojlantirishda Navoiyning o‘rnini yoritishga ham xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, ruboiy, she’riy san’at, tajnis, kitobat, istixroj, tanosub, estetik prinsip

Аннотация: Султан мира слова, гений тюркской поэзии Низамаддин Мир Алишер Навои в своих рубаи отличается глубиной смысла, эстетической красотой и разнообразием художественных средств. В данной статье анализируются некоторые рубаи Навои, раскрывается, как в них выражено искусство слова, а также исследуются лиризм и образность поэта. В рубаи автор в уникальной манере излагает мысли о жизни, любви, природе и внутреннем мире человека. Кроме того, в статье рассматривается значение метафор, символов и ритма в поэзии Навои. Через творчество Алишера Навои читателю предлагается более глубокое понимание силы слова и его воздействия на человеческую душу. Цель статьи — осветить роль Навои в развитии художественного мышления и творческого самовыражения.

Ключевые слова: Алишер Навои, рубаи, поэтическое искусство, таджнис, китобат, истихрож, таносуб, эстетический принцип

Abstract: *The sultan of the realm of words and the genius of Turkic poetry, Nizamuddin Mir Alisher Navoi, stands out in his rubaiyat with profound meaning, aesthetic beauty, and the rich variety of artistic devices. This article analyzes selected rubai by Navoi, exploring how the art of expression is conveyed, as well as the lyrical and figurative qualities of his poetry. In these quatrains, the author uniquely presents reflections on life, love, nature, and the human inner world. The article also examines the significance of metaphors, symbols, and rhythm in Navoi's poetry. Through the lens of Alisher Navoi's creative legacy, the article aims to provide readers with a deeper understanding of the power of words and their influence on the human soul. It also serves to highlight Navoi's role in the development of artistic thinking and creativity.*

Keywords: *Alisher Navoi, Rubai, poetic art, tajnis (the use of wordplay or puns), kitobat, istixroj, tanosub, aesthetic principle*

Kirish.

Alisher Navoiy – o‘zbek adabiyotining eng yirik namoyandası, Sharq mumtoz she’riyatining dahosi sifatida, asrlar osha inson qalbining eng nozik tuyg‘ularini, orzu-umidlarini, ichki kechinmalarini va jamiyatga nisbatan munosabatini beqiyos badiiy mahorat bilan ifodalagan ijodkordir. Uning adabiy merosi o‘zbek tilining imkoniyatlarini yangi bosqichga olib chiqdi, so‘zning sehri va go‘zalligini teran anglashga undadi. Ayniqsa, Navoiy ruboilari o‘zining ixchamligi, purma’noligi va ijtimoiy-falsafiy teranligi bilan alohida e’tiborga loyiqidir. To‘rt misraga jamlangan fikrlar olami orqali shoir insoniyat uchun muhim bo‘lgan ma’naviy qadriyatlar, axloqiy g‘oyalar, muhabbat, hayot va fan haqidagi chuqr mulohazalarni badiiy tasvir vositalari orqali ifodalagan.

Asar g‘oyasi va mazmuni qanchalik teran bo‘lmasin, o‘sha mazmunga mos shakl tanlanmas ekan, kitobxonda chuqr taassurot qoldirish mumkin emas. Navoiy estetik prinsipiga ko‘ra, mazmun birlamchi; badiiy asardagi mazmun (ma’no) shoirning doimo diqqat markazida turadi. Shu bilan birga, o‘sha mazmun go‘zal libosda, ya’ni shaklda ifoda etilishi lozim.⁴ Ruboil janri esa Alisher Navoiy uchun hayotiy umumlashmalar, falsafiy qarashlar va cheksiz his-tuyg‘ularni ifoda etishda ana shunday “go‘zal libos” bo‘lib xizmat qildi. Navoiy ijodida ruboil janri shunchaki she’riy shakl emas, balki so‘z san’atining mukammal namunasi sifatida namoyon bo‘ladi. Unda qo‘llangan badiiy san’atlar – tashbeh, istiora, tazod, kinoya, tajnis va boshqa uslublar shoirning so‘z ustaligini yaqqol ko‘rsatib beradi. Har bir ruboil –

⁴ Istiqlol davri o‘zbek navoiyshunosligi. 30 jildlik, 17-jild. –Toshkent:2022. B-177

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VII son, Iyun

go‘yo bir badiiy olam, unda har bir so‘z o‘ziga xos ma’no va vazifaga ega. Navoiy ana shu san’atlar orqali so‘zga ruh bag‘ishlaydi, uni mazmun jihatidan boyitadi va uni yurakka chuqur ta’sir etuvchi qudratli ifoda vositasiga aylantiradi.

Inson hayoti maqsad va orzularga to‘la. Har bir odam bu yorug‘ dunyoda biror iz qoldirish, o‘z yo‘lini topish va qalbida jo bo‘lgan intilishlarga erishishni istaydi. Ammo har qanday yuksak orzu oddiy istak bilangina emas, balki mashaqqat, sabr va sadoqat orqali amalga oshadi. Ana shunday ezgu fikrlarni buyuk mutafakkir, so‘z sultoni Alisher Navoiy o‘zining chuqur ma’noli ruboilyarida mujassam etgan. “Badoyi ul-bidoya” asarida shoirning 85 ta ruboysi joy olgan bo‘lib,⁵ quyida ulardan bir nechtasining tahlilini ko‘rib chiqamiz.

Kim istasa saltanat, saxodur anga shart,

Har va’daki aylasa, vafodur anga shart.

Kim faqr talab qilsa, fanodur anga shart,

Ollig‘a nekim kelsa, rizodur anga shart.

Bu ruboiyda Navoiy to‘rt xil holat va to‘rt xil ruhiy holatni taqqoslaydi: saltanat, va’da, faqr va Ollohg‘a yetish. Har biriga erishish uchun esa bir fazilat — ya’ni saxovat, vafa, fano va rizo kerakligi ta’kidlanadi. Bu oddiy so‘zlar zamirida hayotiy haqiqatlar, ruhiy kamolot yo‘llari yashiringan.

Saltanat, ya’ni hokimiyat, rahbarlik har kimning orzusi bo‘lishi mumkin, ammo Navoiy buning yo‘li — saxovatda, ya’ni o‘zini emas, boshqalarni o‘ylashda deb biladi. Chunki haqiqiy rahbar o‘z xalqiga saxiy bo‘lgan, moli, vaqt va mehrini ayamagan insondir.

Shuningdek, ruboiyda va’da berish masalasiga ham to‘xtaladi. Va’da berish oson, ammo vafodorlik — ya’ni bergen so‘zida turish juda og‘ir. Vafo — inson axloqining o‘lchovi. Bu o‘rinda Navoiy bizga har bir so‘z uchun mas’uliyatni his qilishni o‘rgatadi.

Faqr tushunchasi esa tasavvufda Allohga yaqinlashish yo‘lini anglatadi. Navoiy fikricha, kimki bu yo‘lga kirsa, o‘z nafsidan, “men” degan hissidan voz kechmog‘i kerak. Bu esa fanodur — ruhiy yuksalish, o‘zligini yo‘qotib, Haq yo‘lida erishiladigan barkamollik. Eng yuksak daraja esa — Allohga yetishish. Bu darajaga faqatgina rizo, ya’ni Allohning har bir qilgan ishidan rozi bo‘lish orqali erishish mumkin. Navoiy bu bilan bizni taqdirga shikoyat emas, balki shukr qilishga, sabr va tavakkalga o‘rgatadi.

⁵ Sirojiddinov S, Yusupova D, Davlatov O. Navoiyshunoslik. –Toshkent: Tamaddun, 2018

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VII son, Iyun

Alisher Navoiy o‘z ruboiyida hayotning to‘rt muhim jihatini — hokimiyat, so‘z, ruhiyat va ilohiylikni qamrab olib, har biriga erishish yo‘lida zarur bo‘lgan fazilatlarni ko‘rsatadi. Bu fazilatlar — insonni inson qiluvchi asosiy ustunlar: saxovat, vafa, fano va rizo. Demak, har kim ulug‘ maqsad sari yurmoqchi bo‘lsa, avvalo o‘z qalbini poklab, o‘zini tarbiyalashi kerak. Navoiy bizga oddiy misralar orqali katta haqiqatni eslatadi: har qanday yuksaklik fido, sabr va rostlik bilan qo‘lga kiritiladi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan ruboiyda ishlatilgan she’riy san’atlarga to‘talib o‘tadigan bo‘lsak, tazod she’riy san’atiga duch kelamiz.

Tazod (qarama-qarshilik):

Faqr — fano, saltanat — saxovat — bu qarama-qarshiliklar insoniyatdagi tashqi istaklar va ichki fazilatlarni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yib, yaxlit ruhiy muvozanat yaratadi. Shuningdek, har misra “Kim... istasa, ... anga shart” ko‘rinishida tuzilgan bo‘lib, bu strukturaviy takror ruboiyga ritmik uyg‘unlik bergen. Misralarda ifodalangan har bir maqsadga yetish uchun shart qo‘yilishi — go‘zallik va mukammallikka intilish ifodasidir. Har misra oxiri “...anga shart” deb tugaydi — bu radif bo‘lib, ruboyning musiqiyligini ta’minlagan.

Har bir harf — bir tuyg‘u, har bir nuqta — bir dard. Ba’zida inson o‘z his-tuyg‘ularini so‘z bilan emas, balki timsollar, ramzlar, hatto birligina harf orqali ham ifoda etadi. Quyidagi ruboiy ana shunday badiiy sehrga ega asarlardan biri bo‘lib, unda sevgi va husn harflar timsolida jonlanadi:

Jonimdog‘i “jim” ikki dolingga fido,
Anding so‘ng “alif” toza niholingga fido,
“Nun”i dog‘i anbarin hilolingga fido,
Qolg‘on ikki nuqta ikki xolingga fido.

Shoir muhabbatini odatiy so‘zlar bilan emas, balki kitobat san’ati orqali, arabiylar harflar timsolida ifodalagan. Ruboiyda mahbuba siymosi harflar orqali chiziladi — mahbubanining ikki zulfi “jim”ga, qomati “alif”ga, qoshi “nun”ga, yuzidagi husn xollari esa nuqtalarga o‘xshatiladi. Go‘yo sevgilining surati rang emas, harf bilan chizilgan!

Bunday tasvir insonni chuqur o‘yga toldiradi: harflar — biz o‘qib o‘rganadigan, yozib ifodalaydigan belgilar emas, balki qalbimizdagi eng nozik hislarni ifoda etuvchi jonli ramzlar bo‘lishi mumkin. Bu ruboiyda muhabbatning go‘zalligi, inson tuyg‘ularining beqiyos nozikligi harflarda yashirin. Har bir misra — bir sadoqat, bir iztirob, bir iltijo. Ruboyning eng ta’sirli jihat — muhabbatning o‘zini emas, uning

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VII son, Iyun

timsolini ifodalashidir. Shoир bevosita “sen go‘zalsan” demaydi. U “jim”ni, “alif”ni, “nun”ni tilga olib, bu harflarning shakllari orqali go‘zallikni chizadi. Navoiy ushbu ruboysiда kitobat san’atidan juda mohirona foydalanadi va o‘ziga xos estetik go‘zal tasvir yaratadi.

Bu ruboiy – oddiy she’r emas. Bu – yurakdagи muhabbatni harflarda jonlantirish, yozuvda jon izlash, sevgida san’at ko‘rishdir.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy ruboiylaridagi so‘z sehri – ya’ni so‘zning go‘zallikni ifodalashdagi badiiy va estetik qobiliyati hamda bu ruboiylarda qo‘llangan badiiy san’atlar xilma-xilligi tahsinga loyiq. Shoирning she’riy fikrlash dunyosi, poetik obrazlar yaratish uslubi va ularning zamiridagi ma’no qatlamlari, shuningdek Navoiy ijodining ma’naviy-axloqiy, estetik va falsafiy qirralari insonni chuqur o‘yga toldiradi. Bu ruboiylar orqali nafaqat Navoiy ijodidagi buyuk san’atkorlik ruhini, balki o‘zbek tilining boy imkoniyatlari va milliy badiiy tafakkurning qudratini ham beixtiyor o‘z vujudimizda his qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. TAT. 10 jildlik. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2011. 1-4-j
2. Istiqlol davri o‘zbek navoiyshunosligi. 30 jildlik, 17-jild. –Toshkent:2022
3. Sirojiddinov S, Yusupova D, Davlatov O. Navoiyshunoslik. –Toshkent: Tamaddun, 2018
4. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. –Toshkent: Sharq, 1990